

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR

Saparova Umida Baxromovna

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti o'qituvchisi

Boypo'latova Fazilat Chori qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi

Annotatsiya: Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda o'quvchilarning matematik salohiyotini, bilimlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilib tashkil qilingan mashg'ulotlar tushuniladi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy mazmuni dars jarayonida egallangan bilimlarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirish o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini ortirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, matematika, bilim, o'quvchi, sinf, to'garak, iqtidor, faoliyat, dars.

KIRISH

2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "2023-yil Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berar ekanlar ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" deb ta'kidlab o'tdilar. Kelajak avlodni bugungi zamon fani asoslari bilan chuqurroq tanishtirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishiga erishishi, umumta'lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O'quvchilar yuqori sinflarda matematika, fizika, kimyo va boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich sinflarda matematika fanini puxta egallashi va amaliy ko'nikmalar hosil qilishlari kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini oshirish va darslarni o'zlashtirish darajasini ko'tarishga yordamlashish uchun boshlang'ich maktabda sinf mashg'ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o'tkazish zarur.

Asosiy qism. . Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, o'quvchilarni bilimga va mehnatga bo'lgan ishtiyoqini orttiradi, shuningdek, o'zlashtirish sifatini oshirishga, tanqidiy fikrlashga, o'zini namoyon etishda va xulqini yaxshilashga ta'sir etadi. Matematikada sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda, o'quvchilarning matematik hisob kitob bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mantiqiy tafakkurini oshirish maqsadida tashkil qilingan mashg'ulotlarni tushunamiz. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilarning fanga bo'lgan ishtiyoqini orttirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman olganda boshlang'ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog'langan bo'lib, sinf ishlarining davomi bo'ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Maqolada

sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, ularning turlari, o'tkazish tartibi, to'garakka jalb qiluvchi o'quvchilarni qiziqitira olish yo'llari yoritilgan. Shuningdek maqolada matematik soatlarni o'tkazish taxminiy ishlanmasidan namuna berilgan. Qiziqarli matematika to'garaklardan matematik bellashuvlar har xil o'yinlar o'tkazilish tartibi berilgan. Sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilar bilan biror maqsadni ko'zlovchi, barqaror amaliy natijaga olib boradigan, ularni qiziqishlarini orttiradigan, amalda bajariladigan ishlarni olib borishi kerak. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi mumkin; a) ommaviy ishlar; (musobaqalar, ko'rik tanlovlar, kechalar, ekskursiyalar va hokazolar) b) to'garak ishlar (yosh matematiklar); d) o'qituvchilarning mustaqil mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish (bunda o'quvchilar fan va texnikaning biron soxasini o'rganish uchun mustaqil ishlaydilar. e) Maktabdagi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etish usullari. Matematika to'garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turi. To'garak o'quvchilarning qiziqish doiralaridan kelib chiqqan holda, ixtiyoriy ravishda tuziladi. Har qaysi matematika to'garagida qatnashadigan o'quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o'qituvchiga qiyinchilik tug'diradi va o'quvchilar ham o'z bilimlarini to'liq namoyish eta olmasdan, to'garakda aktiv ishtirok eta olmaydilar. Matematik viktorinalar ma'lum mavzu, bo'lim yoki umuman matematikaga doir masalalar bo'yicha savol – javob o'yini bo'lib, ko'p vaqt va katta tayyorgarlik talab qilmaydi.

Xozirgi davr talabi shundan iboratki, ilm fan rivojisiz hech bir sohani kelajagi yo'q ekanligiga ishonch hosil qilindi. Buni mamlakatimizda 2020- yilda ilm-fanni rivojlantirishdagi ustivor yo'nalish sifatida matematika fanini tanlanishida ham ko'rish mumkin. Matematika sohasiga qiziquvchi iqtidorli va bilimli yoshlarni qidirib topish, ularni rivojlantirish zarurligi, bu sohada chuqur ilmiy ishlar olib borish zarurligini bildirib turibdi.

Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda o'quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg'ulotlarni tushunamiz. Matematikadan o'tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning mazmuni dars mashg'ulotlarida egallangan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishda, o'zlashtirishga qulay bo'lishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shundagina sinfdan tashqari mashg'ulotlar dars mashg'ulotlarining mantiqiy davomi bo'lib xizmat qila oladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda ko'pincha yuqori sinflar nazarda tutiladi. Lekin ilg'or tajribalarning tasdiqlashicha, boshlang'ich sinflarda ham sinfdan tashqari turli – tuman formalarda mashg'ulotlar olib borishning potensial imkoniyatlari mavjud.

Yani bolalarga yoshlik chog'idayoq chuqur, puxta va qiziqarli bilim berib borilsa. Yuqori sinflarda o'zlashtirishi yanada oson va samarali bo'lishi isbotlanmoqda. Bu imkoniyatlardan foydalanish o'qitishda boshlang'ich va yuqori sinflar uzviyligini ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni olib borishda

o'quvchilarning nutq madaniyatini va matematik tafakkurini shakllantirish talab qilinadi. Kelajak avlodni bugungi zamon fani bilan chuqurroq tanishtirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta'lim – tayanch maktablar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu vazifani hal etishda sinfdan tashqari ishlarining o'rni juda katta. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan chuqurlashtirilgan holda foydalanish mumkin.

Darsdan tashqari qilinadigan ishlar o'quv reja asosida ya'ni darslik talablarini bajarishga qaratilgan bo'lib, bunga sinfdagi barcha talabalar bevosita ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlardan asosiy maqsadi reja va darslikdan tashqari o'quvchilarga qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalar berish, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, olingan bilimlarni hayotga tadbiq qila olishiga yordam berishdan iborat Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyanan holda ularning darsdan bosh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, aqliy faoliyatini tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarining oziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rangbarangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali yo'lga qo'yishning oqilona usullaridan biri hisoblanadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faol tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning istaklari, hohishlari va qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ulard mustaqil, tashabbuskorona va faol ishtirok etishadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarining asosini matematika to'garigi tashkil qiladi. Matematika to'garagi ishini tog'ri tashkil qilish va o'tkazish uslubidan to'g'ri foydalanish kerak. Bolalarni matematikaga qiziqishini uyg'otish, bilimlarini oshirishga matematikadan bilimlarini rivojlantirishga imkon yaratib berish kerak. O'z kuchiga ishonishini qiyinchiliklarni o'zi mustaqil hal qilishni o'rgatish qobiliyatini tarbiyalashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Elmuurodova.R.A. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali. 2022,14
- 2.Qarshiyeva.Z.X. Pedagogics international research journal. 2022, 2
- 3.Asatova.B.F. Innovations in technology and science education. 2023,8
- 4.jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) -T.: Turon-Iqbol, 2016. 426b.